



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Abduboriyeva Komila Rovshan qizi  
Bank-moliya akademiyasi magistranti

#### **Annotatsiya**

Ushbu tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) bilan ishlashni takomillashtirish va kredit risklarini boshqarish masalalariga bag'ishlangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, NPL asosan risklarni oldindan baholashdagi kamchiliklar, noto'g'ri ta'minot bahosi va monitoringning sustligi bilan bog'liq. Shu asosda AI va Big Data asosidagi erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish, LTV va DSTI ko'rsatkichlarini kuchaytirish hamda AMC faoliyatini rivojlantirish taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Muammoli kreditlar (NPL), kredit riski, tijorat banklari, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, erta ogohlantirish tizimlari, kredit portfeli, aktivlarni boshqarish kompaniyalari (AMC), axborot asimmetriyasi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash tizimini samarali takomillashtirish uchun, avvalo kredit riskining yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan asosiy omillarni chuqur tahlil qilish zarur. Bunda makroiqtisodiy muhit, institutsional sharoitlar hamda banklarning joriy kredit portfeli holatini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarida kreditlar sifatining keskin yomonlashuvi nafaqat banklarning ichki faoliyati, balki ular faoliyat yuritayotgan makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liq. Xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, YaIMning barqaror o'sishi qarz oluvchilarning real daromadlarini oshirib,



## International Congress on Economics, Management and Business Studies


Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

kreditlarning pul oqimlari hisobidan o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi va NPL darajasini kamaytiradi. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay, ayrim xususiy banklarda NPL darajasining yuqori saqlanib qolayotgani muammoning asosiy sababi makroiqtisodiy omillardan ko'ra, banklarning ichki boshqaruvi, riskli kreditlash siyosati va institutsional zaifliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Valyuta kursining o'zgarishi va inflyatsiya darajasi NPL shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, keskin devalvatsiya xorijiy valyutada kredit olgan, biroq daromadini milliy valyutada oladigan qarz oluvchilar uchun qarz yukini oshirib yuboradi. Shu bilan birga, Markaziy bankning qat'iy monetar siyosati inflyatsiyani pasaytirish va foiz stavkalarini barqarorlashtirishga qaratilgan. Biroq asosiy xatarlardan biri yuqori foizli uzoq muddatli iste'mol va ipoteka kreditlarida LTV hamda qarz yukining yuqori darajada saqlanib qolayotganidir.



**1-rasm. O'zbekistonda davlat va xususiy banklarning muammoli kreditlar (NPL) hajmi, trln so'mda<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Markaziy Bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ushbu 1-rasmdagi grafikda O'zbekistonning muammoli kreditlari (NPL) yukining davlat banklaridan xususiy banklarga strukturaviy qayta muvozanatlanayotganini ko'rsatadi. Davlat banklari NPL 2021-yilda 5,168 trln so'mdan 15,069 trln so'mga keskin oshdi (+192%), so'ng 2025-yilga kelib 12,834 trln so'mgacha kamaydi. Xususiy banklar NPL esa 2020 yildagi 0,617 trln so'mdan 2024 yilda 6,841 trln so'mga ( $\approx 11$  baravar) oshib, 2025 yilda 5,221 trln so'mgacha pasaydi. Natijada xususiy banklarning jamidagi ulushi taxminan 11% dan 32,3% cho'qqiga (2025 yilda 28,9%) ko'tarilgan.

2021-yildagi davlat banklari keskin o'sishi inqiroz davridagi restrukturizatsiyalar va davlat tijorat banklari uchun xos bo'lgan avvaldan yo'naltirilgan kredit ekspozitsiyalari bilan izohlash mumkin. 2023–2024-yillardagi xususiy sektor o'sishi esa chakana va kichik va o'rta biznesga ajratilayotgan kreditlashining tez kengayishi, yuqori LTV ko'rsatkichli ipoteka kreditlari hamda qarz xizmatining ortib borayotgan yuklari bilan mos keladi, bu esa Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan stress-test tahlillarida qayd etilgan.

NPL hajmlarining ortishi IFRS 9 bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralarni oshirishni talab qiladi, kapital yetarliligini zaiflashtiradi va moliyalashtirish xarajatlarining oshishi hamda ishonch omillari orqali likvidlik bosimini yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, XVJ FSAP hisobotida NPLlarning yetarlicha hisobot qilinmasligi kredit risklari zaifligini yanada kuchaytirishi ta'kidlab o'tilgan.

Ustuvor choralar qatoriga qarz oluvchilarga asoslangan cheklovlar (LTV/DSTI), sun'iy intellekt va Big Data asosidagi erta ogohlantirish tizimlari, garov qiymatini muntazam qayta baholash hamda aktivlarni boshqarish kompaniyalari (AMC) va sek'yuritizatsiya orqali bozor mexanizmlari asosida realizatsiya qilish kiradi. Bu Yevropa Markaziy banki tajribasiga mos bo'lib, NPLlarni tezroq kamaytirish kreditlash tiklanishini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatadi.



## International Congress on Economics, Management and Business Studies


Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ushbu 3-rasmda bank kredit portfelining sifati ko‘rsatkichi, ya’ni muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2020–2025-yillar davomida davlat va xususiy banklar ulushlari tahlil qilingan. Grafikdan ko‘rinadiki, dastlab 2021-yilda NPL darajasi keskin oshib eng yuqori nuqtaga chiqqan (jami 5,2%), so‘ng 2022-yilda tez pasaygan va 2023-yilda nisbatan barqarorlashgan. 2024-yilda esa xususiy banklarda yana oshish kuzatiladi, lekin 2025-yilda barcha segmentlarda yana pasayish qayd etiladi.

2020–2023-yillarda davlat banklarida NPL darajasi xususiy banklarga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bu davlat banklarida yo‘naltirilgan kreditlar va risklar ko‘proq ekanligini ko‘rsatadi. Ammo 2024-yilda xususiy banklar NPL darajasi bo‘yicha davlat banklarini ortda qoldirgan.



**3-rasm. O‘zbekistonda davlat va xususiy banklarning muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda**



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Amaliy jihatdan, 2021-yildagi o‘shish pandemiyadan keyingi muammolar, kredit muddatlarining cho‘zilishi va nazoratdagi kamchiliklar bilan bog‘liq. 2022-yildagi pasayish esa muammoli kreditlarni balansdan chiqarish va nazoratni kuchaytirish natijasidir. 2024-yildagi xususiy banklar o‘shishi esa kreditlashning tez kengayishi va ayrim yirik banklardagi muammolar bilan izohlash mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda muammoli kreditlar bilan ishlash tizimi asosan muammo yuzaga kelgandan keyin choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan. Asosiy kamchiliklar kreditga layoqatlilikni yuzaki baholash, monitoringning sustligi va garov ta‘minotini noto‘g‘ri baholash bilan bog‘liq. Kreditlashda pul oqimlari tahliliga yetarli e‘tibor berilmay, garovga ortiqcha tayanish kreditlarning qaytmasligiga olib kelmoqda. Shuningdek, garovlarni noto‘g‘ri baholash va undiruv jarayonlarining cho‘zilishi banklarga zarar keltiradi. Axborot asimmetriyasi va erta ogohlantirish tizimlarining yetishmasligi ham muammoni kuchaytiradi, shu bois xalqaro tajribaga asoslangan bozor mexanizmlarini joriy etish muhimdir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) muammosi alohida bank emas, balki butun moliya tizimi uchun tizimli tahdid hisoblanadi. Uni hal etish uchun makroprudensial siyosatni kuchaytirish, risk madaniyatini rivojlantirish va bank boshqaruvini takomillashtirish zarur. Hozirda NPL darajasi nisbatan barqaror bo‘lsa-da, global iqtisodiy tebranishlar kelajakda xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, banklar risklarni oldindan prognozlash va samarali boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishi lozim.

Mazkur ilmiy va amaliy tahlillar asosida tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish hamda kredit portfelini sog‘lomlashtirish nuqtai nazaridan quyidagilar taklif etiladi:



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

- erta ogohlantirish tizimini (Early Warning System - EWS) hamda muqobil ma'lumotlarga asoslangan sun'iy intellekt (AI) modellarini zudlik bilan joriy etish.

- makroprudensial regulyator siyosati, DSTI va LTV normalarini qat'iylashtirish va yangi konseptual kreditlash falsafasiga o'tish.

- muammoli aktivlarni institutsional boshqarishning raqobatli ikkilamchi bozorini (AMC) shakllantirish va bank sekuritizatsiyasini kengaytirish.

- inson kapitalini investitsiyalash, kadrlar siyosati va tizimli operatsion xatarlarni yumshatish.

Xulosa qilib aytganda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan institutsional islohotlar muammoli kreditlar (NPL) darajasini kamaytirib, bank tizimi barqarorligini mustahkamlaydi. Bu banklarning moliyaviy holatini yaxshilab, aktivlar sifatini oshiradi. Natijada iqtisodiyotda tadbirkorlik va innovatsion loyihalarni barqaror kreditlar bilan moliyalashtirish imkoniyati kengayadi hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Ozili, P. K. (2025). Bank non-performing loans research around the world. Asian Journal of Economics and Banking. Munich Personal RePEc Archive (MPRA).
2. van Zwieten, K. / Balgova, M. et al. (2017). Managing Non-Performing Loans in Banks: A Review of the Evidence of the Impact of Insolvency and Creditor Rights Regimes. The World Bank Group.
3. Ari, A., Chen, S., & Ratnovski, L. (2021). The dynamics of non-performing loans during banking crises: A new database with post-COVID-19 implications. Journal of Banking & Finance (IMF Working Papers).



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

4. Cucinelli, D., et al. (2018). Credit risk in European Banks: The bright side of the internal ratings based approach. *Journal of Banking & Finance*.
5. Boumparis, P., et al. (2019). The impact of sovereign rating changes on bank non-performing loans. *Journal of International Money and Finance*.
6. Абдуллаева Ш.З. (2012, 2017). Банк рисклари ва кредитлаш (Bank risklari va kreditlash). Молия ва Иқтисодиёт нашриётлари, Тошкент.
7. Махмудов Р.Х. (2024). Тижорат банкларида муаммоли кредитлар билан ишлаш амалиётидаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари. Тошкент давлат иқтисодиёт университети (TSUE).
8. Омонов А.А. (2006). Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. Иқтисод-Молия нашриёти, Тошкент.
9. International Monetary Fund (IMF), 2023. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program (FSAP) – Executive Summary. Washington, DC: International Monetary Fund.
10. M. Balgova, M. Nies and A. Plekhanov, “The economic impact of reducing nonperforming loans”, EBRD Working Paper No. 193, October 2016.